

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING JISMONIY MADANIYATINI SPORT
PEDAGOGIKASI VOSITASIDA RIVOJLANTISHNING METODIK TIZIMI**

Nishonov Shuxratjon Abdullayevich

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti preventiv tibbiyyot asoslari, jamoat salomatligi, jismoniy tarbiya va sport kafedrasi assistenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15120922>

Annotatsiya. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning jismoniy madaniyatini sport pedagogikasi vositasida rivojlantirishning metodik tizimi ishlab chiqilgan. Ushbu tizim orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, sog'lom turmush tarziga motivatsiyani kuchaytirish hamda sport faoliyatiga qiziqishni shakllantirish maqsad qilingan. Samarali pedagogik usullar va sport mashg'ulotlarini tashkil etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Natijada sport pedagogikasining jismoniy tarbiya jarayonidagi ahamiyati va uning ta'sirchanligi aniqlangan.

Kirish so'zlar: Jismoniy madaniyat, Sport pedagogikasi, Motivatsion yondashuv, Pedagogik jarayon, Insonparvarlashtirish, Gumanistik yo'nalish, Jismoniy tarbiya.

Kirish

Bo'lajak o'qituvchilarning jismoniy madaniyatini sport pedagogikasi vositasida rivojlantirish, ularda yangicha dunyoqarash va tafakkurni tarbiyalash hamda jismoniy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda ularning kasbiy kompetetligidan yuqori darajada foydalana olishda motivatsion yondashuvdan foydalanish, motivatsion favoliyatni yuzaga keltirish va shu asosda ijtimoiy o'zgarishlarga erishish maqsad qilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarning jismoniy madaniyatini sport pedagogikasi vositasida rivojlantirish jarayoni pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish, kuch vositasida emas, tushuntirish, ruhiy ta'sir ko'rsatish asosida ta'lim sifatiga erishishga yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim. Pedagogik jarayonning gumanistik yo'naltirilganligi ta'limning ilg'or prinsiplaridan biri bo'lib, jamiyat va shaxs maqsadlarini o'zaro uzviy mujassamlashtirishni talab qiladi. Ta'limni insonparvarlashtirish zamonaviy jamiyatdagi ko'p qirrali jarayonda muhim o'rinn egallaydi.

Jismoniy ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish – bu jismoniy ta'lim va tarbiya fanlari va gumanitar bilimlarni aks ettiruvchi fanlarni integratsiyalash; ijtimoiy fanlar (huquq, falsafa, etika, estetika, adabiyot, psixologiya va boshq.)ni jismoniy tarbiya fanlarini o'qitilishida foydalanish, inson huquqlari, erkinliklari, uning sha'ni va etnomadaniy xususiyatlarini hurmat qilish, madaniy qadriyatlar va axloq normalarini egallash, qurilayotgan jamiyatga, tabiatga g'amxo'r munosabatda bo'lishga asoslanadi.

Bundan tashqari, mazkur tamoyil pragmatizatsiya (aytib o‘tilgan fanlar mazmunining tayyorgarlik yo‘nalishi, bitiruvchining pedagogik faoliyatni xususiyatiga yaqinligi), diversifikatsiya (majburiy va elektiv (talabaning tanlovi ko‘ra) gumanitar fanlar doirasini kengaytirish) va integratsiya (fanlararo kurslarni o‘qitish va o‘rganishni tashkil qilish)da o‘z aksini topadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarining jismoniy madaniyatini sport pedagogikasi vositasida rivojlantirishda ularning irodaviy sifatlarini ham rivojlantirish talab etiladi. Bu boradagi asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat: jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarida jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishni va talablarni imkon darajada qoniqtirish, jismoniy tarbiya ishlarini takommilashtirishda qo‘shimcha tashqi resurslarni jalb etish, jismoniy tarbiyaning ta’limiy va tarbiyaviy sifatlarini oshirish.

Talabalar sog‘ligini mustahkamlash, ularda sabr-toqat, matonat, qat’iyatlik, mustaqillik, intiluvchanlik kabi sifatlarni rivojlantirish juda muhim jarayon degan fikrni bildirishdi. Talabalar esa ushbu jarayondan manfaatdor shaxslar sifatida jismoniy tarbiyada o‘zlariga yoqgan sport turlari bilan shug‘ullanish imkoniyatlariga ega bo‘lish, asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qoniqtirish (yigitlar - kuch, chaqqonlik, tezkorlik, chidamkorlik; xotin-qizlar-egiluvchanlik, chaqqonlik, chidamkorlik, tezkorlik), qat’iyatlilik, jasurlik, matonat va mustaqillikni rivojlantirish kabi sifatlarga ega bo‘lish istagini bildirishdi.

Bularni birlashtiruvchi maqsad, talabalarda irodaviy sifatlarni rivojlantirish jarayonini ishga tushirish emas, balki shu yo‘nalishda aniq maqsadga yo‘naltirilgan va urg‘u berilgan ishlarni tashkillashtirish va amalga oshirishdir.

Jismoniy tarbiya darsi jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishning asosiy shakli bo‘lib, talabalarning irodaviy sifatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Boshqa shakllardan farqli o‘laroq dars shakli bir necha ustunliklarga ega: dars-eng ommaviy shaklda tashkillashtirilgan, tizimli va majburiydir; ilmiy asoslangan dastur asosida o‘tkazilib, uzoq muddatga mo‘ljallangan; jismoniy tarbiya mutaxassisni rahbarligida o‘tkaziladi; dars o‘tishda talabalarning yoshi, jinsi, jismoniy va individual xususiyatlari hisobga olinadi; tibbiy guruhi, sport natijalari, harakat qobiliyatlaridan qat’iy nazar, barcha talabalarning har taraflama rivojlanishida yordam beradi.

Jismoniy mashg‘ulotlarning darsdan tashqari shakllari (sport turlari bo‘yicha sport to‘garaklari, maktab musobaqalari, jismoniy tarbiya oyliklari va tadbirlari va boshqalar) talabalarda ommaviy sport turlariga bo‘lgan qiziqishlarni orttiradi, sog‘lom, faol va mazmunli dam olishni ta’minlaydi.

Shu bilan birga bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishda darsdan tashqari jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish katta ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Abdullayeva Sh.A., Xurramov E.E. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash. Zamonaviy ta'lim jurnali, 2016. №5. – 17 b.
2. Bekov D.X. Talabalar o'rtasida jismoniy tarbiya va ta'lim uslublaridan foydalanish tartibi // Mejdunarodnyy nauchnyy jurnal «Internauka» // № 7 (29), 2017. – 129 s.
3. Daukeyeva A.O. Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishning psixologik- pedagogik shartlari. – Nukus: NDPI. 2020. – 12 b.
4. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2008. – 69 b.
5. **Ubaydullayev R.M.** Bo'lajak o'qituvchilarning sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatini sport pedagogikasi vositasida rivojlantirish texnologiyasi. // "Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlar" ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2024.
6. **Usmanova Sh.Sh., Yoqubova D.M.** Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi. // O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'quv qo'llanmasi, 2019.
7. **Asqarov F.A.** Bolalar jismoniy tarbiyasi nazariyasi va texnologiyalari. // Namangan davlat universiteti o'quv qo'llanmasi, 2022.